

BIRINCHI JAHON URUSHIDAN KEYINGI XALQARO MUNOSABATLAR VA
DIPLOMATIYALAR TARIXI

Toirov Jasur Avaz o'g'li

Termiz davlat pedagogika instituti 3 - bosqich talabasi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15032955>

Annotatsiya. Birinchi jahon urushining yakunlanishi va urushdan keyingi muhim siyosiy voqealar. Parijda Versal saroyida Tinchlik shartnomasining tuzulishi, mag'lub davlatlarning g'olib davlatlar tomonidan talanishi. Jahon iqtisodiy inqirozining boshlanishi va uning ta'siri.

Germaniyaning katta miqdorda g'olib davlatlar foydasiga Reparatsiya to'lashi. Yevropaning qator mamlakatlarida o'ng radikal kuchlarning paydo bo'lishi va fashizmning ommalashuvi. Versal - Vashington tizimining oqibatlari.

Kalit so'zlar: Versal shartnimasi, Rapallo shartnomasi, Versal - Vashington tizimi, Avstriya - Vengriya, Usmoniyalar imperiyasi, Veymar Respublikasi, Trianon shartnomasi, Yaponiya va Xitoy, Aqsh, Sovet ittifoqi, Buyuk Britaniya va Fransiya, Jahon iqtisodiy inqirozi.

HISTORY OF INTERNATIONAL RELATIONS AND DIPLOMACY AFTER WORLD
WAR I

Abstract. The end of World War I and important political events after the war. The conclusion of the Peace Treaty at the Palace of Versailles in Paris, the plundering of the defeated countries by the victorious countries. The beginning of the world economic crisis and its impact. Germany's large-scale payment of reparations in favor of the victorious countries. The emergence of right-wing radical forces in a number of European countries and the popularization of fascism. The consequences of the Versailles-Washington system.

Keywords: Treaty of Versailles, Treaty of Rapallo, Versailles-Washington system, Austria-Hungary, Ottoman Empire, Weimar Republic, Treaty of Trianon, Japan and China, USA, Soviet Union, Great Britain and France, World economic crisis.

ИСТОРИЯ МЕЖДУНАРОДНЫХ ОТНОШЕНИЙ И ДИПЛОМАТИИ ПОСЛЕ
ПЕРВОЙ МИРОВОЙ ВОЙНЫ

Аннотация. Окончание Первой мировой войны и важные политические события после войны. Подписание мирного договора в Версальском дворце в Париже, разграбление побежденных стран странами-победительницами. Начало мирового экономического кризиса и его последствия. Крупномасштабные репарационные выплаты Германии

державам-победительницам. Появление праворадикальных сил и популяризация фашизма в ряде европейских стран. Последствия Версальско-Вашингтонской системы.

Ключевые слова: Версальский договор, Рапалльский договор, Версальско-Вашингтонская система, Австро-Венгрия, Османская империя, Веймарская республика, Трианонский договор, Япония и Китай, США, Советский Союз, Великобритания и Франция, мировой экономический кризис.

Birinchi jahon urushining boshlanishi va uning dahshatli oqibatlari dunyo davlatlarining iqtisodiga, ijtimoiy va sanoat tizimiga katta zarba bo'ldi. Dunyoda yangi tartib o'rnatildi, qator imperiyalar tarqalib ketdi. Rossiyada monarxiya ag'darilib, yangi komunistik tizim o'rnatildi. Aqsh, Buyuk Britaniya va Fransiya dunyoda gegemon mamlakatlarga aylandi. Yevropada o'ng kayfiyatdagi radikal kuchlarning paydo bo'lishi, mag'lub davlatlarda Revanshizmning kuchayishi, keyingi jahon urushining boshlanishiga olib kelib qo'ydi.

BIRINCHI JAHON URUSHIDAN KEYINGI XALQARO SHARTNOMALAR

Birinchi jahon urushining yakunlanishi Parijda Versal saroyida 1919 - yil 18 - yanvardan 1920 - yil 21 - yanvargacha 27 ta mamlakat ishtirokida konferensiya bo'lib o'tdi. 1918 - yil noyabrda Germaniya imperiyasi quladi, o'miga yangi hukumat tuzildi va mamlakat Veymar Respublikasi deb ataladigan bo'ldi. Yangi hukumat 1919 - yil 28- iyunda Versal tinchlik shartnomasi imzoladi. Bunga ko'ra urushning asosiy aybdori Germaniya g'olib davlatlar foydasiga 132 mlrd marka reparatsiya to'lashi lozim edi. Elzas va Lotaringiya Fransiyaga qaytarildi. Eypen okrugi, Malmedi va Moreno Belgiyaga, Shimoliy Shlevzig Daniyaga o'tkazildi. Saar viloyati 15 yil davomida xalqaro nazoratga o'tkazildi va iqtisodiy jihatdan Fransiya bilan bog'landi. Reyn viloyati esa demilitarizatsiya qilinib, ittifoqchi davlatlarning nazorati ostida qoldi. Sharqda Germaniya G'arbiy Prussiya, Poznan va Yuqori Sileziyaning bir qismini Polshaga berishga majbur bo'ldi. Bu bilan Polsha Boltiq dengiziga chiqish imkoniyatini qo'lga kiritdi. Danzig shahri esa erkin shahar deb e'lon qilinib, Millatlar Ligasining nazorati ostida qoldi. Memel viloyati dastlab Antanta davlatlari nazoratiga o'tgan bo'lsa-da, keyinchalik Litvaga qo'shib yuborildi. Shimoliy Shlevzig esa referendum natijasida Daniyaga o'tdi. Germaniya nafaqat Yevropadagi hududlaridan, balki barcha mustamlakalaridan ham mahrum bo'ldi. Afrika va Tinch okean hududlaridagi sobiq mustamlakalari Britaniya, Fransiya, Yaponiya va boshqa davlatlar o'rtasida bo'lib olindi.



Birinchi jahon urushidan so‘ng Avstriya-Vengriya imperiyasi butunlay parchalanib, tarix sahnasidan yo‘qoldi. Urushning og‘ir natijalari va 1919–1920-yillarda imzolangan Sen-Jermen hamda Trianon shartnomalari imperiyaning hududiy yo‘qotishlariga sabab bo‘ldi. Bir paytlar Yevropaning qudratli davlatlaridan biri bo‘lgan bu imperiya bir necha mustaqil davlatlarga bo‘linib ketdi. Avstriya o‘zining katta hududlarini qo‘shti davlatlarga boy berdi. Chexiya va Slovakiya ajralib chiqib, yangi Chexoslovakiya davlati tashkil topdi. Polsha Galisiya va Lodomeriyaning bir qismini qo‘lga kiritdi. Janubiy Tirol, Trentino va Isonzo vodiysi Italiyaga berildi. Sloveniya, Xorvatiya va Bosniya-Gersegovina esa yangi tashkil etilgan Serblar, Xorvatlar va Slovenlar qirolligi tarkibiga qo‘shti. Avstriya imperiya maqomidan ayrilib, kichik bir davlatga aylandi. Bundan tashqari, unga Germaniya bilan birlashish qat’iyan man etildi. 1920 yil imzolangan Trianon shartnomasi Vengriyani ulkan hududlaridan ayrıldi. Transilvaniya va Banatning sharqiy qismi Ruminiyaga o‘tdi. Slovakiya va Ruteniyaning katta qismi Chexoslovakiyaga qo‘shib yuborildi. Vojvodina va Banatning g‘arbiy hududlari esa Yugoslaviya tarkibiga kirdi. Hatto Burgenland ham Avstriyaga berildi. Ushbu yo‘qotishlar natijasida Vengriya hududining qariyb uchdan ikki qismini va aholining yarmidan ortig‘ini yo‘qotdi. Bu esa mamlakatda chuqur norozilik bo‘ldi.

Usmoniyalar imperiyasi Sevr (1920) shartnomasidan keyin Yaqin Sharqdagi boy hududlaridan butunlay mahrum bo‘ldi. Ittifoqchilar Suriya va Livanni Fransiyaga, Falastin, Iordaniya va Iroqni esa Buyuk Britaniyaga topshirdi. Arabiston yarim orolida Hijoz qirolligi mustaqil davlatga aylandi. Misr, Sudan va Kipr ham rasman Britaniya nazoratiga o‘tdi. Anatoliya hududining o‘zida ham imperiya katta yo‘qotishlarga duch keldi.

G‘arbiy Anatoliyadagi Izmir viloyati Gretsiya nazoratiga o‘tdi. Sharqda esa Sevr shartnomasiga ko‘ra, Armaniston va Kurdiston mustaqil davlatlar sifatida tashkil topishi belgilandi.

Istanbul va Bosfor bo‘g‘ozlari xalqaro nazorat ostiga olinib, Usmoniyalarga amalda mustaqillik qoldirilmadi. Sevr shartnomasi Usmoniyalar imperiyasining tanazzulini tasdiqlagan bo‘lsa-da, turk milliy harakati bunga qarshi chiqdi. Mustafo Kamol (Atatürk) boshchiligidagi boshlangan Kurash (1919–1922) natijasida turklar o‘z mustaqilligini qayta qo‘lga kiritdi. 1923-yilda Lozanna shartnomasi imzolandi va Usmoniyalar imperiyasining rasman tugatilishi e’lon qilindi. O‘rniga yangi Turkiya Respublikasi tashkil etildi.

Birinchi jahon urushi Rossiya imperiyasi uchun og‘ir iqtisodiy va siyosiy inqirozga sabab bo‘ldi. Urushning qiyinchiliklari, frontdagi mag‘lubiyatlar va xalq orasidagi norozilik 1917-yilgi Fevral inqilobiga olib keldi. Natijada podsho Nikolay II taxtdan voz kechdi va Rossiyada Muvaqqat hukumat tuzildi. Biroq, bu hukumat ham mamlakatdagi beqarorlikni bartaraf eta olmadi. 1917-yilning oktabrida bolsheviklar hokimiyatni egallab, Sovet Rossiyasini tuzdilar. Inqilob va fuqarolar urushi natijasida Rossiya imperiyasi parchalanib, katta hududiy yo‘qotishlarga uchradi. 1918-yilda Brest-Litovsk shartnomasi imzolanib, Rossiya Germaniya va uning ittifoqchilariga ko‘plab hududlarini topshirdi. Garchi bu shartnoma 1918-yilda Germanyaning mag‘lubiyatidan keyin bekor qilingan bo‘lsa-da, Rossiya imperiyasining sobiq hududlarida mustaqil davlatlar paydo bo‘lishi jarayoni davom etdi. Brest shartnomasi natijasida Finlyandiya – 1917-yil dekabr oyida Rossiyadan ajralib, mustaqilligini e’lon qildi. Estoniya, Latviya va Litva – Boltiqbo‘yi davlatlari 1918–1920-yillar davomida o‘z mustaqilligini qo‘lga kiritdi.

VERSAL - WASHINGTON TIZIMI VA UNING OQIBATLARI

Birinchi jahon urushidan keyin dunyo siyosiy xaritasi tubdan o‘zgardi. Yangi xalqaro tartibni shakllantirish va tinchlikni ta’minlash maqsadida g‘olib davlatlar bir qator shartnomalar va kelishuvlarni imzoladilar. Natijada, 1919–1925-yillarda Versal-Washington tizimi vujudga keldi. Bu tizim Yevropa va Osiyoda yangi chegaralarni belgilab, xalqaro munosabatlarni tartibga solishga harakat qildi. Versal tizimi Birinchi jahon urushidan keyin Germaniya va uning ittifoqchilariga yuklatilgan shartlar majmuasidan iborat bo‘lib, asosan 1919-yilgi Versal shartnomasi va unga bog‘liq boshqa tinchlik shartnomalaridan iborat edi. Bu shartnomalar urushda mag‘lub bo‘lgan davlatlarni jazolash va yangi xalqaro tartib o‘rnatishga qaratilgan. To‘rt tomonlama shartnoma – AQSh, Buyuk Britaniya, Yaponiya va Fransiya o‘z mustamlakalariga qarshi hujum qilmaslikka kelishib oldi.

Besh tomonlama shartnoma – Dengiz qurollanishini cheklash maqsadida AQSh, Buyuk Britaniya, Yaponiya, Fransiya va Italiya o‘z flotlarini belgilangan nisbatda saqlashga rozi bo‘ldi. To‘qqiz tomonlama shartnoma – Xitoyning hududiy yaxlitligi tan olindi va “ochiq eshik” siyosati qo‘llanildi, ya’ni barcha davlatlar Xitoy bilan savdo qilish huquqiga ega bo‘ldi. Buyuk Britaniya va AQSh Tinch okean hududida qudratli davlat sifatida qoldi. Yaponiya Janubiy Xitoy dengizi va Tinch okeanining ba’zi hududlaridan voz kechishga majbur bo‘ldi, ammo mintaqadagi asosiy harbiy kuchlardan biri bo‘lib qoldi. 1929 - 1933 - yillarda Jahan iqtisodiy inqirozi davrida mamlakatlar ocharchilik , ish tashlash , korxona , fabrika va yirik zavodlar tanazzul yoqasiga keldirib qo‘ydi. 1923 yil oktabrda Italiyada B. Mussolini boshchiligidagi fashistlar hukumatni egalladi. U 1919 - yilda "Fashidekombatimento" partiyasiga asos solgan edi. Mussolini Italiyasi Shimoliy Afrika mamlakatlari, jumladan Tunis, Jazoir, Misr va Efiopiyani egallash o‘zining asosiy vazifasi deb bilar edi, aniqroq qilib aytganda U "Rim imperiyasi" ni tiklashni istardi. 1919 - yil Germaniyada Adolf Gitler boshchiligidagi "Germaniya natsional - sotsialistik ishchi partiyasi" tuzadi. 1923 - yil 8- noyabrda Myunxenda uch mingga yaqin natsistlarning davlatga qarshi to‘ntarilish uyishtiriladi, bu tarixga " Pivo isyoni" deb kirdi. 1932 - yil 2- fevralda qurolsizlanish bo‘yicha Jenevada ochilgan konferensiyada Germaniya barcha mamlakat uchun bir xil bo‘lgan "xavfsizlik doirasi bo‘yicha teng huquqlik" ga erishadi. Bu Germaniya harbiy salohiyatini tiklanishiga, xalqaro miqyosda tan olinishini anglatar edi. Gitler hokimiyatni egallagandan so‘ng, 1933 - yil oktabrda Germaniya millatlar ligasidan chiqadi. 1936 - yil yozida iqtisodiyotni harbiy yo‘nalishga o‘tkazishning 4 yillik rejasini tasdiqladi. Shunday qilib ikkinchi jahon urushi arafasida Germaniya qurolli kuchlari safi 3 mln 670 ming harbiydan iborat edi. Rossiyada Bolsheviklar hokimiyatni egallagandan so‘ng, Germaniya bilan 1922 - yildayoq shartnoma imzolaydi, bu tarixga Rapallo shartnomasi nomi bilan kiradi. Lenin boshchiligidagi komunistlar xalqaro maydonda hali zaif edi. Osiyoda esa Yaponiya urushdan keyin imperiyachilik kayfiyati kuchaydi. Sharqiy Osiyoni kelajakda egallash istagida bo‘lgan yaponlarda "militaristik mafkura" shakllandı.

Yaponiya Buyuk Britaniya va Aqsh bilan iqtisodiy jihatdan yaqinlashuv siyosatini tutadi. Shunday qilib " Versal - Vashington tizimi" dunyon ikinchi jahon urushi boshlanishiga asosiy sabab bo‘lib qoldi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, Birinchi jahon urushidan keyin g“olib davlatlar tomonidan dunyon bo‘lib olish avjiga chiqdi. Bu urush dunyo mamlakatlari aholisining yostig‘ini quritdi, davlatlar iqtisodini zaiflashtirdi.

Versal - Vashington tizimi Aqsh, Buyuk Britaniya va Fransiyani dunyoning gegemon mamlakatlarga aylantirdi. Urushdan keyingi xalqaro shartnomalar mag'lub davlatlarning iqtisodini yanada dahshatli ahvolga keltirib qo'ydi. Natijada Yevropada o'ng radikal kuchlarning paydo bo'lishi, dunyoda keyingi jahon urushining boshlanishiga olib keldi. Balki xalqaro shartnomalar adolatli tuzilganda ikkinchi jahon urushi boshlanmagan bo'lar edi.

REFERENCES

1. M.Rasulov - "Xalqaro munosabatlar va diplomatiyalar tarixi " Fargo'na 2023
2. A.Mirzayev -" Xalqaro siyosat va diplomatiyalar " 2018
3. Sh.Sharipov -" Diplomatiya va uning rivojlanishi" 2017
4. A. Abdulkarimov -" Xalqaro munosabatlar va diplomatiyalar tarixi" 2020
5. R.Jo'rayev - " Xalqaro munosabatlar va diplomatiyalar tarixi " Namangan 2023